

Isroilova Dildora Muxtorovna,
pedagogika fanlari doktori (DSc), Qo'qon
universiteti Andijon filiali "Xorijiy tillar"
kafedrasining professori

Muxamedjanova Sitorabegim Djamolitdinovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Buxoro davlat texnika universiteti "O'zbek va xorijiy
tillar" kafedrasining dotsenti

XALQARO AKADEMIK MOBILLIKDA INGLIZ TILIDA TIBBIY TERMINLARNI O'RGATISHNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

UO'K: 811.111'276.6:378.147:61

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_6_](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_6_)

ISROILOVA D.M., MUXAMEDJANOVA S.DJ. XALQARO AKADEMIK MOBILLIKDA INGLIZ TILIDA TIBBIY TERMINLARNI O'RGATISHNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Ushbu maqolaning maqsadi, xalqaro akademik mobillik sharoitida ingliz tilida tibbiyot terminlarini o'rganishda lingvopragmatik yondashuvni ko'rib chiqish, shuningdek, talabalar xalqaro va professional muloqot ko'nikmalarini egallashlariga yordam beradigan asosiy bosqichlar va o'qitish usullarini ajratib ko'rsatishdir.

Tayanch so'z va tushunchalar: lingvopragmatika, tibbiy terminologiya, til, shifokor, bemor, tibbiyot, madaniyatlararo kompetentsiya, lug'at, kontekst.

ИСРОИЛОВА Д.М., МУХАМЕДЖАНОВА С.ДЖ. ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ В МЕЖДУНАРОДНОЙ АКАДЕМИЧЕСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ

Целью данной статьи является рассмотрение лингвопрагматического подхода к изучению медицинской терминологии на английском языке в контексте международной академической мобильности, а также выделение основных этапов и методов обучения, помогающих студентам приобретать навыки международного и профессионального общения.

Ключевые слова и понятия: лингвопрагматика, медицинская терминология, язык, врач, пациент, медицина, межкультурная компетентность, словарь, контекст.

ISROILOVA D.M., MUXAMEDJANOVA S.DJ. LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF TEACHING MEDICAL TERMS IN ENGLISH IN INTERNATIONAL ACADEMIC MOBILITY

The purpose of this article is to consider the linguopragmatic approach to studying medical terminology in English in the context of international academic mobility, as well as to highlight the main stages and methods of teaching that help students acquire international and professional communication skills.

Key words and concepts: linguopragmatics, medical terminology, language, doctor, patient, medicine, intercultural competence, dictionary, context.

Kirish.

Lingvopragmatik yondashuv tilshunoslikdagi tushuncha sifatida chet tillarini, jumladan, tibbiy ingliz tilini o'qitishda keng qo'llaniladi. Grammatikaga yo'naltirilgan an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, pragmatik yondashuv tilning muayyan ijtimoiy va madaniy kontekstlarga yo'naltirilgan aloqa vositasi sifatida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili.

Baxtin¹ va Vinogradovlar² o'z ishlarida tilning ma'nosini faqat grammatik konstruksiyalar va leksik birliklarga xos qilib bo'lmasligini ta'kidlaydilar - til aloqa vositasi sifatida, muhokama qilinayotgan vaziyat va ishtirokchilarga qarab, turli xil ishlatilishi mumkin. Ushbu yondashuv, ayniqsa, turli kontekstlarda atamalarining aniqligi va tushunilishi juda muhim bo'lgan tibbiyot sohasida uchratish mumkin.

Tibbiyot atamalarini o'qitishga lingvopragmatik yondashuvning asosiy jihatlari:

- **kontekstni tushunish** - lingvopragmatik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri - tildan foydalanish real vaziyatlar bilan bog'liq bo'lishi kerak. Tibbiy amaliyotda muloqotning eng muhim jihatlari - bu maslahatlar, diagnostika, davolash usullarini muhokama qilish va bemorlar bilan o'zaro munosabatdir. Talaba ingliz tilida tibbiy atamalardan samarali foydalanishi uchun u bu atamalarining hayotiy vaziyatlarda qanday qo'llanilishini tushunishi zarur. Masalan, talaba shikoyat bilan kelgan bemor kontekstida "*symp-tom*" atamasini to'g'ri qo'llashi, shuningdek, vaziyatga qarab "*disease*" va "*condition*" atamalarini qo'llashdagi farqlarni bilishi lozim.

Turli mamlakatlarda tibbiy amaliyot va atamaning idrokidagi farqlar haqida gap ketganda, ayniqsa kontekst muhim rol o'ynaydi. Misol qilib aytganda, ba'zi davlatlarda muayyan muolajalar turli nomlarga ega bo'lishi yoki bir xil holatni tavsiflash uchun turli kontekstlarda har xil atamalar qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun, terminni bilish etarli emas, balki uni qaysi vaziyatda va qanday qilib to'g'ri qo'llash kerakligini ham hisobga olish lozim;

- **tilning moslashuvi** - vaziyat va muloqot darajasiga qarab atama, iboralarni tanlash va qo'llash qobiliyatidir. Tibbiyot amaliyotida tilni kim bilan suhbat olib borayotganingizga qarab moslashtira olish muhim - bu hamkasb, bemor yoki rahbar bo'lishi mumkin. Masalan:

- **Shifokorlar va hamkasblar.** Hamkasblari bilan professional muloqotda talaba aniq tibbiy atamalarni ishlatishi, o'z mamlakatida qo'llaniladigan tibbiy leksikani tushunishi va uni davolash yoki tashxis qo'yish jarayonida to'g'ri qo'llay olishi kerak. Masalan, "*surgery*" yoki "*procedure*" kabi atamalar mintaqaga qarab turli kontekstlarda ishlatilishi mumkin.

- **Shifokorlar va bemorlar:** Bemorlar bilan muloqotda tushunarli va oddiy leksikani ishlatish muhim. Talaba murakkab tibbiy atamalar va muolajalarni oddiy tilda tushuntira olishi, aniqlikni yo'qotmagan holda bemor uchun ma'lumotni qulay va tushunarli qilish lozim. Masalan, "*X-ray*" atamasi bemor yaxshiroq tushunishi uchun "*X-ray tasviri*" yoki "*tibbiy skanerlash*" kabi iboralar bilan almashtirilishi mumkin.

- **Madaniy farqlar orasidagi bo'shliq:** Tibbiyot amaliyoti turli mamlakatlarda atamalardan turlicha foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada "*general practitioner*" atamasi umumiy amaliyot shifokorlariga nisbatan qo'llaniladi, AQShda esa "*primary care physician*" termini bilan ifodalanadi. Bunday farqlarni bilish va atamalarni madaniy kontekstga moslashtira olish lingvopragmatik yondashuvning muhim jihati hisoblanadi³.

- **madaniyatlararo kompetentsiya** - lingvopragmatik yondashuvning muhim qismidir, chunki u atamalarni idrok etish va talqin qilishdagi farqlarni hisobga olgan holda turli madaniy va lingvistik guruhlar vakillari bilan ishlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tibbiyot amaliyotida madaniy tafovutlar tibbiy atamalarining tushunilishi va qo'llanilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tibbiyot terminologiyasiga kelsak, har bir madaniyat o'ziga xos xususiyatlarga ega va hatto bitta tilda (masalan, ingliz tili) atamalar mamlakatga qarab turlicha qabul qilinishi mumkin. Misol tariqasida "*check-up*" atamasini keltirish mumkin, bu AQShda muntazam tibbiy ko'rikni

¹ Bakhtin, M.M. (1986). Speech genres and other late essays (V. W. McGee, Trans.; C. Emerson & M. Holquist, Eds.). - University of Texas Press.

² Vinogradov, V.V. (1997). Русский язык (Грамматическое учение о слове). - Москва: Высшая школа.

³ Mukhamedjanova S.Dj. Linguopramatic and intercultural approach of teaching foreign languages to medical students in international academic mobility. - Samarkand, 2024. P. 660-663.

1-jadval. Tibbiy ingliz tilida lingvopragmatik toifalar

Xato turi	Misollar	Pragmatik tushuntirish
So'zma-so'z tarjima	"Take history" -Tarixni oling	To'g'ri variant: "Anamnezni to'plash."
To'g'ridan-to'g'ri so'rovlar	"Give me the results."	Yaxshiroq variant: "Could you please provide the results?"
Madaniyatlararo farqlarni e'tiborga olmaslik	"You must follow this treatment."	Yaxshiroq variant: "I recommend that you follow this treatment."

anglatadi, ammo Buyuk Britaniyada shifokorga oddiy profilaktik tashrifni tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari, madaniyatlararo farqlar turli millatdagi bemorlarni idrok etishda namoyon bo'lishi mumkin, bu ham tibbiy atamalarni o'rgatishda inobatga olinishi muhim bo'lgan omillardan biridir. Masalan, Masalan, "informed consent" (ongli rozilik) atamasi bemor huquqlariga oid madaniy va huquqiy an'analarga qarab turli mamlakatlarda turlicha qabul qilinishi mumkin¹. Talaba tibbiy atamaning nafaqat ma'nosini, balki uning xalqaro amaliyotdagi qo'llanilish kontekstini ham tushunishi zarur.

Maqsad.

Madaniyatlararo farqlarga misollar: 1. Turli mamlakatlarda tibbiy atamalardan foydalanish: Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Buyuk Britaniya va Avstraliyada "GP" (*General Practitioner*) va "family doctor" atamaları bir xil mutaxassisga tegishli bo'lishi mumkin, ammo AQShda esa sog'liqni saqlash tizimidagi turli rollarga ishora qilish uchun turli kontekstlarda ishlatiladi². **2. Og'riq va tashxis qo'yishda madaniy farqlar:** Turli madaniyatlarda og'riqni his qilish va uni ifodalash usullari farq qilishi mumkin. Misol uchun, ba'zi mamlakatlarda bemorlar og'riqni his qilishlarini juda hissiy tarzda ifodalashga moyil bo'lsalar, boshqa mamlakatlarda bu holat zaiflik sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunday hollarda bemor bilan muloqot qilishda madaniy xususiyatlarni inobatga olish muhimdir³. **3. Tibbiy atamalarni tarjima qilish va moslashtirish muammolari:** Tibbiyot terminologiyasi, ayniqsa farma-

kologiya sohasida turli mamlakatlarda turlicha nomlanishi mumkin va tushunmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun atamani to'g'ri moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, AQShda bitta nomga ega bo'lgan dorilar Buyuk Britaniya yoki Avstraliyada boshqa nomga ega bo'lishi mumkin.

Tibbiyot terminologiyasini o'qitishning lingvopragmatik yondashuvi haqiqiy professional kontekstni integratsiya qilishni talab etadi, bu esa talabalarga nafaqat leksik, balki kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi.

Natijalari va amaliy ahamiyati.

Lingvopragmatik yondashuv bilan tanish bo'lmagan talabalar ko'pincha quyidagi toifalarga ajratish mumkin bo'lgan xatolarga yo'l qo'yadilar⁴ (1-jadval):

Haqiqiy matnlardan foydalanish talabalarga quyidagilarga yordam beradi:

- Maxsus adabiyotlarni o'qish va tushunish ko'nikmalarini yaxshilaydi;
- Kasbiy lug'at boyligini kengaytiradi;
- Tibbiyot sohasidagi dolzarb tadqiqotlar va amaliyotlar bilan tanishtiradi;
- Haqiqiy klinik holatlarni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, haqiqiy materiallardan foydalanish tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy kompetensiyalarni va ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi [6].

Biroq, material tanlashda talabalarning tilni bilish darajasini hisobga olish muhim. Haddan tashqari murakkab matnlar tushunishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, shu bilan birga, moslashtirilgan haqiqiy materiallar talabalarni

¹ Mukhamedjanova S.Dj. Improving intercultural competence in ESP for global integration on the example of medical students. // Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal_12-son (2024-yil, dekabr). P. 111-114.

² Spencer-Oatey, H., & Franklin, P. (2009). Intercultural Interaction: A Multidisciplinary Approach to Intercultural Communication. Palgrave Macmillan.

³ Mukhamedjanova S.Dj. Обучение лингвопрагматическому общению студентов-медиков на иностранном языке. ACTA NUUZ 2024/12. - Tashkent, 2024. P. 166-168.

⁴ Thomas, J. (1983). Cross-Cultural Pragmatic Failure. Applied Linguistics, 4(2), 91-112; Béal, C. (1992). Did you have a good weekend? or why there is no such thing as a simple question in cross-cultural encounters. // Australian Review of Applied Linguistics, 15(1), 23-52.

asta-sekin professional nutq bilan tanishtirishga yordam beradi¹.

Maqolaning ilmiy ahamiyati.

Shunday qilib, tibbiy ingliz tilini o'qitish jarayoniga autentik materiallarni integratsiyalashuvi xalqaro tibbiy muhitda samarali ishlay oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashning asosiy elementi hisoblanadi.

Kasbiy muhitni imitatsiya qilish talabalarga tibbiy ingliz tilini o'qitishning asosiy komponenti bo'lib, ularga terminologiyani real hayotda samarali qo'llash imkonini beradi.

Case metodi - klinik holatlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi, bunda talabalar simptomlarni tahlil qiladi, tashxis qo'yadi va davolash rejalarini ishlab chiqadi. Ushbu yondashuv tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va tibbiy terminologiyani chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Simulyatsiya texnologiyalari - tibbiy manekenlardan foydalanish, ob'yektiv tuzilgan klinik tekshiruvlar (OSCE) o'tkazish hamda standartlashtirilgan bemorlar bilan o'zaro aloqani o'z ichiga oladi. Ushbu usullar talabalarga nazorat va xavfsiz muhitda amaliy ko'nikmalarni qo'llash imkonini beradi.

Rolli o'yinlar - turli muloqot holatlarini, masalan, shifokor va bemor, hamkasblar yoki bemorning qarindoshlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni modellashtirishni o'z ichiga oladi. Bu talabalar uchun tibbiy terminologiyani muloqot kontekstiga mos ravishda qo'llashga yordam beradi.

Ushbu usullarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarda ingliz tilida tibbiy amaliyotda samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari pragmatik kompetensiyasini baholash ularning tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lib, bo'lajak shifokorlarning tilni kasbiy kontekstda samarali qo'llash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi usullarni qo'llash tavsiya etiladi:

Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar - talabalar autentik tibbiy vaziyatlarni modellashtirishiga imkon beradi, bunda ular tibbiy terminologiya va kommunikativ strategiyalarni qo'llash mahoratini namoyish etadilar. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, keys-metodidan foydalanish tibbiyot

yo'nalishidagi talabalar pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga ko'maklashadi².

Terminologiyadan to'g'ri foydalanishni baholash - talabalar turli xil muloqot holatlarida tibbiy terminlardan qanchalik to'g'ri foydalanishlarini baholash muhimdir. Masalan, bemorga tashxisni tushuntirishda tushunarliroq til ishlatish talab etiladi, holbuki, hamkasblar bilan muloqotda maxsus leksikadan foydalanish mumkin. Nutqning kontekstga muvofiqligini tekshirish talabalarning pragmatik kompetensiya darajasini aniqlash imkonini beradi. Munozaraga asoslangan o'qitish usullarini joriy etish sotsiologiyistik va pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirishga shakllantirishga xizmat qiladi.

O'qituvchilar va talabalar tomonidan fikr-mulohaza bildirish - O'qituvchi va tengdoshlaridan muntazam ravishda fikr-mulohaza olish talabalar uchun tilni qo'llashdagi kuchli va zaif tomonlarini anglashga yordam beradi. Murakkab vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va muloqot strategiyalarini tuzatish pragmatik kompetensiya darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunday amaliyot talabalar uchun o'z kommunikativ ko'nikmalarini kasbiy muhit talablariga moslashtirish imkonini beradi.

Ushbu usullarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar tibbiy amaliyotda ingliz tilida samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, bu esa malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa va amaliy takliflar.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot terminologiyasini ingliz tilida o'qitishda lingvapragmatik yondashuv talabalarni tayyorlashda, ayniqsa, akademik mobillik doirasida hal qiluvchi rol o'ynaydi³. Ushbu yondashuv nafaqat talabalarga maxsus tibbiy lug'atni o'zlashtirish imkonini beradi, balki madaniyatlararo va kasbiy sharoitlarda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Tilning moslashuvi, kontekstni tushunish va madaniyatlararo farqlarni anglash bo'lajak mutaxassislarning xalqaro tibbiy muhitda muvaffaqiyat qozo-

¹ Казакова М.А. Использование адаптированных аутентичных литературных текстов в обучении иностранному языку. – Екатеринбург, 2018.

² Glushenko O.A. Формирование компенсаторной и прагматической компетенции в обучении иностранному языку студентов медицинских направлений подготовки. // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. Тамбовск, 2021. Р. 60-68.

³ House, J. (2019). Cross-Cultural Pragmatics. - Cambridge University Press.

nishiga hissa qo'shadigan muhim omillardan biridir.

Bundan tashqari, linguapragmatik strategiyalarni birlashtirish talabalarning nafaqat atamalarning so'zma-so'z ma'nosini, balki tibbiy amaliyotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy madaniy va pragmatik kamchiliklarni ham talqin eta oladigan yanada moslashuvchan kommunikator bo'lishini ta'minlaydi.

Lingvapragsmatik yondashuvni samarali amalga oshirish uchun bir nechta strategiyalarni tavsiya qilish mumkin:

1) xalqaro bemorlar yoki hamkasblar ishtirokidagi real hayotdagi tibbiy holatlarni simulyatsiya qiluvchi case-based va role-play interaktiv metodlardan foydalanish;

2) tibbiy muloqotda madaniy jihatdan aniq kommunikatsiya uslublari va noverbal belgilarning o'rganilishini ta'kidlash;

3) talabalarga turli madaniy muhitdan bo'lgan tengdoshlar bilan hamkorlikdagi loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish orqali ularning madaniyaro muloqot kompetensiyasini rivojlantirish;

4) talabalarni haqiqiy til muhitiga oshno qilish uchun klinik hisobotlar, shifokor va bemor o'rtasidagi suhbatlar hamda xalqaro tibbiy konferensiyalar kabi autentik materiallardan foydalanish;

5) talabalarga o'z kommunikatsiya strategiyalarini tahlil qilish va ularni turli madaniy kontekstlarga moslashtirish asosida reflektiv amaliyotni rag'batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakhtin, M.M. (1986). Speech genres and other late essays (V. W. McGee, Trans.; C. Emerson & M. Holquist, Eds.). - University of Texas Press.
2. Béal, C. (1992). Did you have a good weekend? or why there is no such thing as a simple question in cross-cultural encounters. // Australian Review of Applied Linguistics, 15(1), 23-52.
3. House, J. (2019). Cross-Cultural Pragmatics. - Cambridge University Press.
4. Glushenko O.A. Формирование компенсаторной и прагматической компетенции в обучении иностранному языку студентов медицинских направлений подготовки. // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. Тамбовск, 2021. P. 60-68.
5. Казакова М.А. Использование адаптированных аутентичных литературных текстов в обучении иностранному языку. – Екатеринбург, 2018.
6. Kurbanova Kh. K., Imanmagomedova E.A. Профессионально-ориентированное обучение английскому языку студентов-медиков. // Журнал "Педагогические науки". Образование и право № 6 • 2023. P. 383-388.
7. Spencer-Oatey, H., & Franklin, P. (2009). Intercultural Interaction: A Multidisciplinary Approach to Intercultural Communication. Palgrave Macmillan.
8. Thomas, J. (1983). Cross-Cultural Pragmatic Failure. Applied Linguistics, 4(2), 91-112.
9. Mukhamedjanova S.Dj. Linguopramatic and intercultural approach of teaching foreign languages to medical students in international academic mobility. - Samarkand, 2024. P. 660-663.
10. Mukhamedjanova S.Dj. Обучение лингвопрагматическому общению студентов-медиков на иностранном языке. ACTA NUUZ 2024/12. - Tashkent, 2024. P. 166-168.
11. Mukhamedjanova S.Dj. Improving intercultural competence in ESP for global integration on the example of medical students. // Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal_12-son (2024-yil, dekabr). P. 111-114.
12. Vinogradov, V.V. (1997). Русский язык (Грамматическое учение о слове). - Москва: Высшая школа.